

## O'ZBEKISTONDA YANGI UYG'ONISH UCHINCHI RENESSANSNING POYDEVORLARI- YOSHLARDIR!

Xalilova Lobar Boymamatovna

*Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirdi.*

*Shavkat Mirziyoyev*

Prezident har bir xalq faqat erkin va ozod bo'lgan taqdirdagina, o'z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etish huquqiga ega bo'lishini ta'kidlagan.

«Haq berilmas, haq olinur!» deb, millat ozodligi yo'lida jonini fido qilgan ulug' ajdodlarimizning buyuk maqsadi ham shu edi. Biz qanday tahlikali va suronli davrlarni boshimizdan kechirmaylik, qanday yutuq va natijalarga erishgan bo'lmaylik, mustaqillik g'oyasi, istiqlol ruhi bizga doimo tog'dek tayanch bo'lmoqda.

Bugun cheksiz iftixor bilan ayta olamizki, donishmand xalqimizning uzoqni ko'ra olishi, birdamligi va fidoyi mehnati bilan barcha sinovlardan munosib o'tib kelmoqdamiz. Shu nuqtayi nazardan, bizning insoniy qadr-qimmatimizni, g'urur va sha'nimizni, dinu diyonatimizni, milliy davlatchiligimizni tiklab bergan Mustaqillik kuni Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo'lib qoladi. Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda «Yangi O'zbekiston» iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir.

Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas», dedi davlat rahbari. Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat — barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim. Renessans nima? Nega Uchinchi Renessans deyilmoqda? «Renessans» lug'aviy fransuzcha «qayta tug'ilish» degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san'atda, ta'lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o'rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo'llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o'zbek tiliga Uyg'onish davri deb o'girilgan. Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909-yilda «Musulmon Renessansi» nomli fundamental

asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII — VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi. XV asrdan Renessans Yevropaga siljidi. Bu paytga kelib Yevropa 300 — 350-yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg'oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o'girib, chuqur o'zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg'onishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganlardan biri Ibn Rushddir. Yevropa falsafasi va ilmiy tafakkurida XVI asr o'rtalarigacha averroizm (Ibn Rushd ta'limotiga asoslangan oqim) mavqeini saqlab turdi. Afsuski, XVI asrning 30 — 40 yillarida bizda an'anaviy jamiyat uzil-kesil qaror topdi. Ilmiy, badiiy izlanishlarga ijtimoiy ehtiyoj pasayib ketdi. O'tmish yutuqlari oldida qulluq qilish, ularni ideallashtirish [va faqat takrorlashga urinish](#), yangiliklarga salbiy munosabat shakllandi. Asta-sekin chuqur turg'unlik va inqiroz boshlandi. Ular noxush ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy-mafkuraviy, regional nizolar va ayirmachilik kabi sabablar bilan qo'shib qoloq bo'lib qolishimizga, XIX asr ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizni yo'qotishga olib keldi. O'tmishdan birinchi bo'lib teran tarixiy xulosa chiqargan — jadid bobolarimiz edi. Ular taklif qilgan islohotlar millatni qayta uyg'otish, taraqqiyot tomon burishni ko'zladi. Ammo mustabid hokimiyat jadidlar harakatini avj olmasdan bo'g'ib qo'ydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi va Uchinchi Renessans asosini yaratish borasidagi tashabbusi bugun realikka ko'cha boshlagani, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangrayotgani, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirayotgani ta'kidlanadi. Shu [bilan birga](#), yurtimiz zamin tarixida ikkita buyuk Uyg'onish davriga beshik bo'lgani, dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' mutafakkirlarni yetishtirib bergani mahorat bilan qalamga olingan. Ayniqsa, Uchinchi Renessansga qo'yilayotgan poydevor va yangi tamaddun asoslari aniq dalillar asosida ochib berilgan.

Asar keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, barcha ta'lim muassasalari, xususan, oliy o'quv yurtlari, tashkilot va idoralar, har bir xonadonga kirib borishi maqsadga muvofiqdir. Zotan, qaysi zamonda bo'lmasin, buyuk evrilishlar, o'zgarish va yangilanishlar, avvalo, xalqning qudrati, salohiyati va kuchiga tayanadi. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimiz uchun eng katta muammo, bu — bugungi zamon talablariga mos kadrlar yetishmasligini, barcha sohada innovatsion va kreativ fikrlaydigan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislariga ehtiyoj juda yuqori ekanini ta'kidlab keladi.

Chunki murakkab o'tish davrida maktablardagi ta'lim sifati pasayib ketdi, kollejlarda davomat nomiga yurgizildi. Ijod maktablarining yo'qligi, madaniyat o'choqlari, to'garaklar faoliyatiga e'tibor qaratilmagani bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Yoshlarimiz bilimsiz bo'lib ulg'aydi, ayrimlari yomon yo'llarga kirib ketdi, ba'zilari esa chet ellarda sarson-sargardon yuribdi. Shu bois Shavkat Mirziyoyev bu masalaga o'z tashvishi va dardidek qaradi, yurtimizning ertangi kuni zamonaviy kadrlarga bog'liq ekanini alohida ta'kidlab, buning uchun ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida o'rtaga qo'ydi. Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim [tizimidan](#), bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni, ta'lim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimi mazmunan va sifat jihatidan yangilanib bormoqda. O'zbekistonda ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, xalqimizning ardoqli adiblari nomlari bilan atalgan ijod maktablari, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Davlatimiz rahbari o'tgan yil noyabr oyida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi chog'ida mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun, avvalo, yangi avlod kadrlarini tayyorlash zarurligini, shu maqsadda yurtimizning har bir hududida bittadan yangi toifadagi maktablar – Prezident maktablari tashkil etilishini ta'kidlagan edi. Joriy yil 20-fevral kuni davlatimiz rahbarining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, qisqa muddatda Toshkent shahrida dastlabki Prezident maktabi qurib bitkazildi, Nukus, Namangan va Xiva shaharlaridagi shunday maktablar qurilishi jadal davom etmoqda. 2020-yilda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida, 2021-yilda Andijon, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida Prezident maktablari tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur o'quv maskanlari yangi avlod kadrlarini yetishtirishda muhim poydevor bo'lishi, shubhasiz. Chunki Prezident maktablari iqtidorli bolalarni aniqlash, ularga ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda saboq berish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim bo'ladi. Bu iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Prezident maktablari

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi shaklida tashkil etiladi. Bu maktablarga o'quvchilar 4-sinf bitiruvchilari orasidan mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbatlar natijalariga ko'ra qabul qilinadi. Maktabning yillik qabul kvotasi 24 o'quvchidan iborat bo'lib, ikkita sinfga bir xil – 12 nafardan o'quvchi taqsimlanadi. Ta'lim jarayoni xorijdagi ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv rejasi va dasturlari bo'yicha ingliz tilida olib boriladi. Tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar bilan birga o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy o'zlikni anglatish uchun o'zbek tili va adabiyoti, tarix va boshqa fanlarga ham alohida ahamiyat qaratiladi. Prezident maktablarida "STEAM – ta'lim" (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – [texnik ijodkorlik](#), Art – san'at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etiladi. 9 – 11-sinflarda o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va intellektual salohiyatini inobatga olgan holda, ayrim fanlar individual tarzda o'tiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar ham tashkil qilinadi. Prezident maktablari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan birga, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imkonini beruvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi. Toshkent shahrida ochilgan Prezident maktabi yangi toifadagi bilim maskanlari uchun andoza bo'ladi. Mazkur o'quv maskani tuzilishi jihatidan an'anaviy maktablardan farqli ravishda ixcham va bilim olish uchun qulay. Maktab 168 o'rinli bo'lib, 12 ta sinfxona, 2 tadan informatika va ingliz tili xonalari, fizika, kimyo, biologiya laboratoriyalari, yotoqxona, oshxona, xorijlik o'qituvchilar uchun 15 o'rinli mehmonxona mavjud. Barcha xona zamonaviy o'quv uskunalari va innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan. Sport zali, suzish havzasi, futbol maydoni qurilishiga ham innovatsion yondashilgan. Ayniqsa, o'zida zamonaviy qulayliklarni mujassam etgan yotoqxona o'quvchilarga oila muhitidagidek yashash va dars qilish imkonini beradi. O'quvchilar haftaning 5 kuni maktabda o'qib yashaydi. Dam olish kunlari ota-onalar farzandlarini uyga olib ketishi mumkin. Joriy yilda maktabning 5 – 10-sinflariga hujjat topshirgan 7 mingga yaqin o'quvchilardan 144 nafari qabul qilindi. Kanadaning "Teach Away" va Buyuk Britaniyaning "TIC Recruitment" rekrutning kompaniyalari bilan hamkorlikda maktabga 30 nafar chet ellik mutaxassis tanlab olindi. Shuningdek, 72 nafar malakali va tajribali mahalliy o'qituvchi jalb qilindi. Avgust oyida barcha o'qituvchilar uchun "Cambridge STEAM" ta'lim dasturini tatbiq qilishga qaratilgan maxsus trening tashkil etildi. "STEAM" dasturiga oid darslik va o'quv qo'llanmalari olib kelindi. Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, o'quvchilar bilan suhbatlashdi. Bu hayotingizdagi birinchi sinov bo'ldi. Mehnat, bilim, adolat nima ekanini ko'rdingiz. Barchangizni shunday nufuzli maktabga munosib topilganingiz bilan chin yurakdan tabriklayman. Sizlar endi O'zbekistonning "oltin fondi" bo'ldingiz. Xalqning, mamlakatning buyukligini tarannum etadigan narsalar ko'p. Lekin eng afzali bilim bilan namoyon etish. Yoshlarimiz orasidan Xorazmiylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar chiqishiga barcha asoslarimiz

bor. Bugun – tarixiy kun. Ilgari yurtimizda bunday sharoit bo‘lmagan. Endi chet eldan nufuzli mehmonlar kelsa, katta-katta zavodlarni emas, Prezident maktablarini ko‘rsatamiz. Sizlar bilimingiz, chiroyli xulq-odobingiz, vatanparvarligingiz bilan hamma yoshlarga namuna bo‘lishingiz kerak. Kelgusida O‘zbekiston taraqqiyotiga ta‘sir ko‘rsatadigan kuchga aylanishingiz lozim, dedi davlatimiz rahbari. Maktab o‘quvchilari zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, milliy o‘zligimizni chuqur anglashi, tariximiz va ona tilimizni mukammal bilishi shartligi ta‘kidlandi. Davlatimiz rahbari xorijlik va mahalliy o‘qituvchilar bilan ham muloqotda bo‘ldi. Yuragimdagi gapimni bilishingizni xohlayman: sizlarga eng katta boyligimni ishonib topshiryapman. Bolalarimizning chaq nab turgan ko‘zlarini, ilmga chanqoqligi va bilimga intilishini, g‘urur-iftixorini ko‘rib, yo‘limiz to‘g‘ri ekaniga ishonch hosil qildim. Islohotlarimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga yelkadosh bo‘layotganingiz uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman, dedi Shavkat Mirziyoyev. O‘quvchilarning ota-onalari va ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda O‘zbekistonda uchinchi renessans – uyg‘onish davri boshlanayotgani ta‘kidlandi. Bu ilm maskanlari umumta‘lim maktablaridan mutlaqo farq qiladi. Bu yerda o‘quvchilar tinimsiz o‘z ustida izlanadi, ularning fanlarni o‘zlashtirishi doimiy nazorat qilib boriladi. Ushbu maktablarda ta‘lim mazmuni va sifatini yangicha asosda yo‘lga qo‘yish uchun kuni kecha Prezident qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Uchrashuvda Prezident maktablari dunyodagi eng zamonaviy uslublar asosida tashkil etilgan bilim maskanlari ekani, bu maktablar bino yoki sharoiti emas, intellekti, ma‘naviy-ma‘rifiy muhiti, dars berish metodikasi bilan boshqa maktablarga namuna bo‘lishi kerakligi qayd etildi. – Kembrij universiteti O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi bilan Prezident maktablari uchun o‘quv dasturi ishlab chiqish va o‘quvchilarni saralab olish bo‘yicha bitim tuzgan, – deydi mazkur universitetning “Cambridge Assessment International Education” muassasasi Shimoliy va Markaziy Osiyo bo‘yicha ta‘lim dasturi rahbari Stiv King. – Ushbu bitimga muvofiq, tashkilotimiz joriy yilda ilk imtihonlarni o‘tkazdi va natijada eng bilimli, eng qobiliyatli bolalar saralab olindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrif chog‘ida bu bolalarga O‘zbekistonning kelajagi, ertangi umidi, deb ishonch bilan qaragani bizni quvontirdi. Tashkilotimiz ushbu loyihada ishtirok etayotganidan mamnunmiz. Nafaqat Toshkentda, balki yurtigingizning barcha hududida tashkil etilayotgan Prezident maktablariga iqtidorli bolalarni tanlab olishga o‘z hissamizni qo‘shish niyatidamiz. – O‘g‘lim Pahlavon maktabning 5-sinfiga qabul qilindi, – deydi Farruh Tursunov. – Bu maktabning ochilishi iqtidorli bolalarga yangi imkoniyat yaratadi. Chunki bu yerdagi sharoitni hech qaysi ota-ona uyda yaratib berolmaydi. Maktabda har bir o‘quvchi uchun bitta netbuk ajratilgan, barcha o‘quvchilar ingliz tilida bemalol so‘zlasha oladi. Prezidentimiz “bolalarda havas uyg‘onishi uchun akademiklar bu yerga kelib o‘z hayotini gapirib bersin”, dedi. Bu bolalarning ilmga intilishini kuchaytirib, kelajakda olamga mashhur olimlar bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Maktabda yangi ta‘lim texnologiyalari joriy etilgani bolalarning intellektual salohiyatini oshiradi. – O‘qituvchilarning tanlov asosida qabul qilinishi, imtihonlarning shaffofligi, mavjud sharoit, ta‘lim jarayoniga yangi o‘quv reja va

dasturlari kiritilgani Prezident maktablarining har tomonlama zamonaviy bo'lishiga [imkon yaratdi](#), – deydi Prezident maktablari loyihasi rahbari Amrullo Abdullayev. – Bu maktablarda o'quvchilarning dunyodagi nufuzli universitetlarga o'qishga kirishga qodir bo'lib bitirishi asosiy mezon qilib olingan. Bunga erishish uchun xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilyapmiz. Prezident maktablarini tashkil etishdagi tajriba kelgusida umumta'lim maktablarida o'quv dasturlarini yangilash va ta'lim sifatini oshirish, yurtimizning barcha hududida bosqichma-bosqich tatbiq etish imkonini beradi. Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida Prezident maktabining faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi. Unda, jumladan, shunday so'zlar bor: "Bugungi kunda yurtimizda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq

harakatiga, butun jamiyatning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. Yangi O'zbekistonimizni yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o'z Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug' kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz. Ana shunday salohiyatli va barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikamizning har bir hududida mutlaqo zamonaviy shakldagi ta'lim muassasalari – Prezident maktablarini tashkil etdik. Men ishonaman, bu maskanlar jonajon O'zbekistonimizning ertangi taqdirini o'z qo'liga olishga, globallashuv davrida keskin bellashuv va raqobatlarida g'olib bo'lishga qodir shaxslarni – yangi Xorazmiylar, Farg'oniylar, Beruniylar, Ulug'beklarni tarbiyalab yetishtiradi. Poytaxtimiz Toshkent shahrida faoliyat boshlagan Prezident maktabi xalqimizning ulug'vor va olijanob orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishda barchaga namuna bo'lishiga tilakdoshman". Shavkat Mirziyoyev maktabning ilk o'quvchi va o'qituvchilari bilan suratga tushdi, yangi maskanga zamonaviy avtobus sovg'a qildi.

– O'zbekistonga xalqaro trener sifatida keldim. Bundan juda xursandman. Mamlakatingiz madaniyati, xalqingizning xushmuomala va mehmondo'stligi menda katta taassurot uyg'otdi, – deydi Namangan viloyatidagi Prezident maktabi o'qituvchisi, fransiyalik Hafida Bensaadune. – Toshkentdagi Prezident maktabiga kelib, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdim. Faoliyatimni tez orada boshlash, mamlakatingiz o'quvchilariga dunyo eshiklari ochilishi uchun bor tajriba va kuch-g'ayratimni ishga solish niyatidaman. O'zbekistonda yoshlar kelajagi, ta'lim olishi uchun kiritilgan investitsiya kelgusida o'zining yuksak samarasini berishi, mamlakat rivojiga ulkan hissa qo'shishi, shubhasiz. Mamlakatimizning kelgusi jadal taraqqiyoti yosh iste'dod egalarini aniqlash, iqtidorli bolalarni saralash va o'qitish tizimini takomillashtirish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini yuzaga chiqarishni taqozo etmoqda. Prezident maktablari bu borada muhim qadam bo'lib, har tomonlama yetuk, jamiyatimizga munosib kadrlarni tarbiyalashda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Milliy g'oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so'zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o'sha maqsad yo'lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa'y-harakatlarini, [intilishlarini](#), bunyodkorlik faoliyatini unga

muvofiglashtiradi. Zarur bo'lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta'lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo'ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g'oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat'i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo'ljalni ko'rsatishi shart.

Istiqbolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda "O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat" shiori olg'a surildi. U amalda milliy g'oya vazifasini o'tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o'ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg'u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g'oya shaklan takomillashtirilganda "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" iborasi olg'a surildi. Unda urg'u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat'i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo'lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo'yildi. Milliy g'oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi. Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'nalishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" bugun iqtisodiy, [ijtimoiy-siyosiy](#), ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g'oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog'da o'tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog'lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo'lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q. Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.

Uchinchi Renessans g'oyasini hayotiy va ta'sirchan milliy g'oyaga aylantirishni nimadan boshlamoq kerak? Holva degan bilan og'iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo'lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilishi, xalqda



ruhiy ko'tarilish, qat'iy irodali intilish yuz bermog'i zarur. Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O'tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san'ati [va adabiyotlaridan birini](#), ilg'or ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo'nda, dabdabali jumalalarsiz yoritish zarur. Shuningdek, ularning inqiroz sabablari xolis tahlil etilmog'i lozim. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo'lining to'xtab qolgani obyektiv sabablardan biri bo'lsa-da, ichki va tashqi nizolar, taxt talashlar, ayirmachilik va uch davlatga bo'linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yetarlicha e'tibor bermaslik kabi subyektiv omillar inqirozni keltirib chiqargan asosiy sabablar edi. Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bular yoshlar, aholi ongiga yetkazilishi kerak. Biz ko'proq avvalgi uyg'onish davrlarimizning yutuqlarini faxr bilan e'tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz. Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Rennessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o'zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq. Uchinchi Rennessans to'rtinchi

sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O'z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O'zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta'minoti bo'yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Rennessans g'oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog'lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta'minot taqozosidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak. Avvalgi ikkala Rennessans mustahkam ma'naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag'rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to'g'rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo'ygan. "Ilm izlab Chinga bo'lsa-da, bor", "Sendan harakat — mendan barakat", "Bir soatlik adolat barcha insu jinlarning qirq kunlik ibodatidan ustun" va ko'plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo'ljaliga aylangan edi. "Baytul hikma" da 40 dan ortiq tarjimonlar [gadimgi yunon tilidan](#), 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o'g'irgan. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo'lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun qo'yilgan. Bu asar ma'jusiylarniki, bunisi kofirlarniki deb inkor qilinmagan. Ajdodlarimiz til o'rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig'iga o'ralib qolmagan, turg'unlik, mahalliychilik ularga yot bo'lgan. "Baytul hikma", Xorazm Ma'mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o'sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasidir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma'naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o'rganmasdan, biz Uchinchi Rennessansni muvaffaqiyatli amalga



oshira olmaymiz. Bugun ham bizga g'oyaviy va ilmiy tolerantlik (bag'rikenglik), ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g'oyaviy mutaassiblikni tamomila inkor etish xos bo'lmog'i lozim. Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etadi. Ammo o'zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni bildiradi.